



O'QITUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA
REGENERATIV METODLARNING O'RNI

Bohodiroya Farida Azamat qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti magistranti

faridabahadirova2000@gmail.com

+998(99) 965-39-74

Annotatsiya: *ushbu maqolada qayta tiklanuvchi metodlardan foydalanish, bu orqali bo'lajak o'qituvchilar va malaka oshirish kursida ta'lim olayotgan pedagoglarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish haqida so'z boradi. Qayta tiklanuvchi metodlardan fankfikshin va loyiha metodlari misolida tushuntirib berilgan. Bu kabi zamonaviy metodlarni amalda qo'llash bo'yicha batafsil to'xtab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *metod, fankfikshin, vatanparvarlik, regenerativ, pedagogika, loyiha, ta'lim, transformativ, kreativ, manba.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается использование регенеративных методов для формирования патриотического духа у будущих учителей и учителей, проходящих повышение квалификации. Регенеративные методы объясняются на примере фанфикшена и проектного метода. Подробно обсуждается практическое применение таких современных методов.*

Ключевые слова: *метод, фанфик, патриотизм, регенеративный, педагогика, проект, образование, преобразующий, творческий, источник.*

Abstract: *This article discusses the use of regenerative methods to form a patriotic spirit in future teachers and teachers undergoing advanced training. Regenerative methods are explained using the example of fanfiction and project methods. The practical application of such modern methods is discussed in detail.*

Keywords: *method, fan fiction, patriotism, regenerative, pedagogy, project, education, transformative, creative, source.*

Bugungi kunda sir emaski, Yangi O'zbekiston har taraflama o'z qiyofasi va o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Har bir sohada jadal rivojlanish, tubdan o'zgarish kuzatilmoqda. Vaholanki, pedagogika sohasi ham bundan mustasno emas. Zero, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz",²⁹- fikrlarini o'rta tashlar ekan, pedagogika sohasining yoshlar hayotidagi o'rniga alohida urg'u bermoqda. Jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va malaka

²⁹ Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalaridan olingan fikrlar). Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2019. – 117-118-bet.



oshirish kurslarida bu g'oyani ilgari surish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda esa zamonaviy metodlar muhim ahamiyatga ega. “Har bir metod qanday metod – falsafiy yoki fanga oid bo‘lishidan qat’iy nazar har birining ish olib borish metodikasi – tadqiqot manbaini tekshirish usuli bo‘ladi. Metodika tadqiqotchining amaliy ishlash sistemasi bo‘lib, u faktlarni to‘plash, o‘rganish, umumlashtirish usullarini nazarda tutadi.”³⁰

Regenerativ metodlar – qayta tiklanuvchi metodlar zamonaviy pedagogikaning bir bo‘lagi bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilarga, balki o‘qituvchilarga ta’lim berishda ham samaralidir. Ushbu qayta tiklanuvchi metodlarning an’anaviy metodlardan farqi shunchaki bilim berishga asoslangan ta’lim emas, aksincha, inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni tiklash, o‘quvchining ichki salohiyatini yangilashga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Zamonaviy o‘zbek pedagogikasida regenerativ yondashuv ko‘pincha virtual va adaptiv ta’lim, loyiha asosida o‘qitish hamda kreativ pedagogikada namoyon bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida transformativ ta’lim (ya’ni bugungi kunga moslashish barobarida kelajakni faol tarzda yaxshilash)ga tayyorlaydi. Bunday metodlar asta-sekinlik bilan hayotimizning bir qismiga aylanib borayotgan sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar bilan chambarchas bog‘lanadi. Shuningdek, jamiyatdagi muammolarni hal qilish orqali o‘rganishni rivojlantiradi. Shaxsning ijodiy salohiyatini qayta tiklash va uni yangi g‘oyalar yaratishga yo‘naltiradi. Albatta, bu omillarning barchasini jamlagan holda o‘qituvchilarda vatanparvarlik hissini shakllantirish, ta’lim beruvchi orqali ta’lim oluvchi bilan aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Ushbu qayta tiklanuvchi metodlardan bir nechtasini ko‘rib chiqsak.

Fankfikshin – ushbu metod yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlik bilan birgalikda muammoni hal qila olish qobiliyatini ham shakllantirish mumkin. Chunki bu metodda o‘qituvchi malaka oshirish kursi yoki oliy ta’lim talabalariga ma’lum bir voqeani so‘zlab beradi. Agar adabiyot, tarbiya singari fan o‘qituvchilari bo‘lsa, ma’lum bir asar o‘qish jarayonida foydalanishi mumkin. O‘qilgan asarga tinglovchilarning o‘zi biror qahramon (obraz) yoki syujet qo‘shishi, bu orqali voqealar rivojini o‘zgartirishi, qahramon xarakterini yangidan yaratishi mumkin. Shuningdek, voqealarni umuman yangi zamonaviy dunyoga o‘tkazish orqali hikoya qilish mumkin. Masalan, “Alpomish” dostonini o‘qigan o‘quvchilarga yangi qahramon qo‘shishi yoki syujet chizig‘ini o‘zgartirishi mumkin. Alpomishni XXI asrga o‘tazishi ham mumkin. Bu nima uchun kerak? Bundan maqsad o‘quvchi bu jarayonda o‘ziga yoqmagan qismlarni “silliqlash”i mumkin. Yoinki biror obraz orqali umuman kutilmagan yechim kiritishi mumkin. Deylik, “To‘maris” afsonasidagi To‘marisning o‘g‘lini o‘limdan saqlab qolishi yoki yangi obraz orqali yurt himoyasini yanada yorqin tasvirlashi mumkin. Buning uchun bajaruvchilardan tasavvur, ijodkorlik, so‘z boyligi talab qilinadi. U mavjud “og‘riqli muammo”ni topadi. Uni hal qiladi. Aynan mana shu holat bo‘lajak o‘qituvchi yoki malaka oshirish kurslarining tinglovchisida vatanparvarlik ruhidagi asarlarni o‘qish orqali amalga oshiriladi.

³⁰Rasulov Ravshanxo‘ja. Academic Research in Educational Sciences,- Volume 3 | Issue 2 | 2022, 447-b.



Loyiha metodi – amaliyot bilan bog‘lanadigan, barcha sohalarda va fanlar integratsiyada qo‘llash mumkin bo‘lgan metoddir. Loyiha metodi talabalarni va pedagoglarni yakka tartibda yoxud jamoaviy tarzda ishlashga undaydi. Bunda o‘rtaga quyidagicha savol tashlash mumkin: “Bugungi kunda vatan taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan omillardan birini belgilang. Ushbu muammoni hal qiluvchi loyihangizni tayyorlang.” Bunda topshiriq bajaruvchi bugungi kunning dolzarb masalalarini ko‘rib chiqadi. Jamiyatdagi yoki ma‘lum qatlamdagi muammolarni topadi. Masalan, ekologik muammo, korrupsiya, ona tiliga behurmatlik, yoshlar orasidagi jinoyatga moyillikning o‘ssishi va hokazolar. Belgilab olgan muammosini hal qilish uchun turli yechimli loyiha ishlarini taqdim qilishadi. Sun‘iy intellektda yaratilgan video shaklida yoki qo‘lda yaratilgan turli ko‘rgazmali qurollar yordamida. Muhimi, mavjud muammoni har taraflama o‘rganib chiqilgani va unga yechim bera olishdir. Topshiriq bajaruvchilar buni amaliyotda qo‘llash uchun turli fan va sohalarga murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi. Bu real voqelikda sodir bo‘layotgan jarayonni baholay olish, chuqur mulohaza qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Nima uchun bunday bo‘lyapti?” savolidan “Shu yo‘l orqali yechimga erishish mumkin” xulosasigacha bir qancha bosqichlarni bosib o‘tadi.

Regenerativ metodlarning barchasi ko‘zlangan maqsadga erishish uchun real voqea va nazariyani bog‘laydi. Mavjud muammoni ijobiy hal etishga yo‘naltiradi. “Ammo hozirgi kunda (davrda) metodologiya, ilmiy tadqiq metodologiyasi ma‘lum bir fanda qo‘llaniladigan xilma-xil metodlar, tahlil usullari haqidagi ta‘limot emas, balki tadqiqotchining tadqiq manbaini, obyektini qanday tushunishi va unga qanday yondashishini, tadqiqotdan qanday maqsadni ko‘zlashi, boshqacha aytganda tadqiqotchining dunyoqarashi nazarda tutiladi.”³¹ O‘qituvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qayta tiklanuvchi metodlardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning ajralmas bo‘lagiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma‘ruzalaridan olingan fikrlar). Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2019. – 117-118-bet.
2. Rasulov Ravshanxo‘ja. Academic Research in Educational Sciences,- Volume 3 | Issue 2 | 2022, 447-b.
3. Ne‘matov H. Ilmiy tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. – Buxoro, 2006, 68-b.

³¹ Ne‘matov H. Ilmiy tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. – Buxoro, 2006, 68-b.